



PEDAGOGIK KONFLIKTALOGIYANING ILMIY ASOSLARI.

Eshmurodova Feruza Ulug'bek qizi

*Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
pedagogika yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pedagogik konfliktologiyaning mazmun-mohiyati, ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan konfliktlar turlari, ularning sabab omillari, turlari va yechim yo'llarini aniqlashga qaratilgan fan sifatida tahlil qilinadi. Pedagogik muhitda konfliktlarni paydo bo'lish omillari- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ muammolar, psixologik nomutanosiblik, baholashdagi adolatsizlik hissi, hamda jamoaviy munosabatlardagi, ziddiyatlar ko'rib o'tgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik konfliktologiya, ziddiyat, konflikt, ta'lim jarayoni, o'qituvchi o'quvchi, kommunikatsiya, konfliktologik kompetensiya, muloqot madaniyati, mediatorlik.*

Annotation: *In this article, pedagogical conflictology is analyzed as a field of study aimed at examining conflicts arising in the educational process, identifying their causes, types, and possible solutions. The article discusses the pedagogical environment - including communicative problems between teachers and students, psychological incompatibility, a sense of unfair assessment, and conflicts within group relationships.*

Keywords: *pedagogical conflictology, contradiction, conflict, educational process, teacher, student, communication, conflictological competence, communication, culture, mediation.*

Hozirgi davrda ta'lim tizimida inson omili, shaxslararo munosabatlar sifati va pedagogic muloqot madaniyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida vujudga keladigan ziddiyatlar pedagogic samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois pedagogik konfliktologiya- pedagogik muhitdagi ziddiyatlarni o'rganish, ularning kelib chiqish sabablari va yechim yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan yangi yo'nalish sifatida dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy ta'limda konfliktologik madaniyatni shakllantirish, o'qituvchilarda ziddiyatlarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish- o'quv jarayoning barqarorligi va psixologik farovonlikni ta'minlovchi muhim omildir. Pedagogik konfliktologiya – ta'lim tizimidagi ziddiyatlarni ilmiy tahlil etuvchi va ularni boshqarish strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan fan sohasi hisoblanadi. U psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayoni subyektlari o'rtasidagi kommunikatsiya intensivligi, mas'uliyatning taqsimlanishi va o'zaro kutishlarning ko'payishi konfliktologik jarayonlarning keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Oliy ta'lim muhitida o'qituvchi – talaba va talab – talaba o'rtasidagi konfliktlar nafaqat mikropsixologik





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



darajada yuzaga keladi, balki ta’limning tashkiliy – kommunikativ dizayni ham bevosita bog’liq. Shu nuqtai nazardan “pedagogik konfliktologiya” mustaqil ilmiy yo’nalish sifatida oliy ta’lim modernizatsiyasi kontekstida yanada strategic ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning obe’kti – oliy ta’lim muhitida kechadigan pedagogik kommunikatsiya jarayonlari. Tadqiqot predmeti esa ushbu kommunikatsiya jarayonlaridagi konfliktlarning nazariy tuzilishi va ularning vujudga kelish mexanizmlaridir. Tadqiqot gipotezasiga ko’ra: konfliktlarning mavhum psixologik holatlar shaklida emas, balki rollararo kutilmalarni tartibga solish mexanizmlarining buzilishi sifatida talqin qilinishi, oliy ta’lim tizimidagi konfliktlarning diagnostik aniqligini va boshqaruv samaradorligini oshiradi.

“Konflikt” termini psixologiya, sotsiologiya, menejment, pedagogika kabi turli fanlarda turlicha semantic yuklama kasb etadi. Ammo ilmiy umumlashtirish shuni ko’rsatadiki, konflikt hamisha subyektlar o’rtasidagi manfaat, pozitsiya, holatdir. Pedagogik konfliktologiya nuqtai nazaridan konflikt- bu kommunikativ tizim ichidagi o’zaro bog’liq komponentlar harakatining muvozanatdan chiqishi, va shu tizimning qayta sozlanish jarayonidir. Demak, konfliktni nafaqat “mojaroni” sifatida, balki tizimli o’zgarish mexanizmi sifatida ham talqin qilish zarur.

Oliy ta’limdagi pedagogik konfliktlarni tasniflashda ularning subyektlararo konfiguratsiyasi muhim omil bo’ladi. Eng ko’p uchraydigan shakllar:

O’qituvchi- talaba konfliktlari, talaba – talaba konfliktlari, talaba – tizim konfliktlari. Oliy ta’lim muhitida konfliktlarning salmoqli qismi o’qituvchi kommunikativ uslubining moslashuvchanlik darajasi bilan bog’liq.

Talabalar guruhida konfliktlarning yuzaga kelishida shaxsiy – kommunikativ kompetensiya darajasini hal qiluvchi omildir.

Konfliktni boshqarish samaradorligi uni kech bosqichda “o’chirish” bilan emas, balki erta bosqichda “aniqlash” bilan belgilanadi. Shu sababli diagnostic monitoring tizimi zarur: emotsional fon monitoring, rolik kutishlar mulqot kalit birliklarini diskurs- analiz qilish.

Pedagogik konfliktologiya oliy ta’lim muhitida kommunikativ tizimning ichki dinamikasini tushuntirib beruvchi mustaqil nazariy platformadir. Demak, konfliktologiya mazmuni – konfliktni yo’q qilish emas, balki uni talqin va boshqarishning konseptual modelini aniqlashdir. Bu yondashuv oliy ta’limning nazariy modernizatsiyasida konfliktni konstruktiv mexanizm sifatida idrok etishga asos yaratadi. Oliy ta’limda konflikt kategoriya darajasiga ko’tarilganda u bilim berish faoliyatining kognitiv va institutsional sifat parametrlarini tushuntirishga xizmat qiluvchi nazariy “kalitga” aylanadi. Shunday qilib, konfliktologiyani chuqur o’rganish har bir insonning kommunikativ madaniyatini oshiradi, muammolarga oqilona yondashishga o’rgatadi va tinchlikni saqlash hamda barqaror ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Axmedova, M.T. (2020) Pedagogik konfliktologiya [o‘quv qo‘llanma] TOSHKENT; DONISHMAND ZIYOSI.
2. Umarova, Z.A. (2024) O‘zbekistonda pedagogik konfliktologiya muammolarini o‘rganish tendensiyalari.
3. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A., ‘‘ Case study’’ uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba – T :, ‘‘ Tafakkur qanoti’’, 2012.

